

"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining Dehqonobod kaliy zavodi yoshlari bilan Rahbar va yoshlar uchrashuvi bo'lib o'tdi

// 25.06.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-boshqaruvi-raisining-dehqonobod-kaliy-za-vo>



Bugun "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi Odil Temirov Dehqonobod kaliy zavodiga tashrif buyurib, korxonada mehnat qilayotgan yosh mutaxassislar bilan uchrashdi.

Rahbar va yoshlar uchrashuvida korxonada faoliyat yuritayotgan 150 nafarga yaqin yosh mutaxassis ishtirok etdi.



Shuningdek, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Qarshi davlat texnika universiteti, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filiali, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining amaliyotchi talabalari qatnashishdi.



Tadbir "Yoshlar oyligi" doirasida tashkil etilgan bo'lib, ochiq va samimiy muloqot ruhida o'tdi. Unda yoshlar o'zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan savollar berishdi hamda rahbariyat tomonidan batafsil javoblar olishdi. Tadbir doirasida "Yoshlar oyligi"da o'tkazilgan sport musobaqalari, "Zakovat" intellektual o'yini g'oliblari, shuningdek, korxona hayotida faol ishtirok etgan yoshlar tantanali taqdirlandi. Ularga diplom va sertifikatlar, shuningdek, qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi.



Uchrashuv davomida Odil Temirov yoshlarning tashabbuslari, ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, ishlab chiqarishdagi o'rni va yetuk mutaxassis sifatida kamol topishlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida alohida ta'kidladi.



"O'zkimyosanoat" AJ yosh kadrlar bilan ochiq muloqot va ularning shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishiga ko'maklashishni o'zining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilab kelmoqda.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati